Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.111
FILOLOGIYA

INGLIZ VA O‘ZBEK ROMAN MATNLARIDA QO‘LLANGAN METAFORANI HOSIL QILUVCHI TIL HODISALARINING KOGNITIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI TAHLILI

Nigora Sapar qizi Ruziyeva*
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
✉ nigora.ruziyeva.88@inbox.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek roman matnlarida qo‘llangan metaforani hosil qiluvchi til hodisalarining kognitiv-pragmatik xususiyatlari tahlili nasriy asarlarda metaforani hosil qiluvchi til hodisalarining kognitiv-pragmatik xususiyatlarini o‘rganish, badiiy tafakkurning lisoniy mexanizmlarini aniqlash, ingliz va o‘zbek nasrida metaforik birliklar inson ruhiyati, milliy tafakkur hamda kommunikativ maqsad bilan uzviy bog‘liq holda shakllanishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar

pragmatik, kognitiv, lingvistik, madaniy, majoziy so‘z, lingvopragmatika, antropometafora, metafora, til hodisasi, lingvokognitivistik.

DOI: 10.5281/zenodo.21743829

Kirish

Kognitiv tilshunoslik va lingvistik pragmatikaning bog‘lovchi bo‘g‘ini antropometaforani o‘rganishning markaziy yo‘nalishi hisoblanadi. Majoziy so‘zni o‘rganishga kognitiv-pragmatik yondashuvning asosi sifatida nafaqat lingvistik shakllar va moddalarning o‘zaro bog‘liqligi va birligi, balki trixotomik birlik ham postulyatsiya qilinadi: til – nutq aloqasi – inson.

Lisoniy vaziyatlar diqqat markazida bo‘lib, uning ishtirokchisi inson jonli nutqning subyekti, nutqni aks ettirish obyekti, badiiy asar qahramonidir.[1, B.16] Tilni faol talqin qilish kognitiv-pragmatik tadqiqotning asosiy g‘oyasi hisoblanadi, chunki til ontologik jihatdan inson faoliyatiga kiritilgan. Metaforani o‘rganishga kognitiv-pragmatik yondashuv doirasida asosiy e’tibor muallif va qabul qiluvchi faoliyatining shaxsiy va ijtimoiy tomonlariga qaratiladi. Shu munosabat bilan, badiiy nasrda metaforani tavsiflashda kommunikativ jarayonning shaxsiy va ijtimoiy-madaniy jihatlari hisobga olinadi. Bu uchta asosiy tarkibiy qismni o‘z ichiga olgan ikkilamchi nominatsiya belgilarini o‘rganish zarurligini anglatadi: kognitiv, lingvistik-pragmatik, lingvistik-madaniy.

Metaforada aks ettirilgan eng muhim jarayonlar hayotiy tajribani konseptualizatsiya qilish, ya’ni minimal bilim tuzilmalarga va toifalarga ajratishdir, ya’ni, ularni katta toifalarga birlashtirishdir. Ushbu lingvokognitiv jarayonlar metaforani lingvopragmatik o‘rganish imkoniyatini belgilaydigan konseptsiyalarning paydo bo‘lishi va shakllanishida ishtirok etadi. Badiiy asar muallifi tomonidan tan olingan voqelikni anglash, obyektlarni aqliy tashkil etish, bir tomondan, subyekttiv, mualliflik va boshqa tomondan, etnokultural nuqtai nazardan metafora shaklida atrofdagi dunyo haqidagi majoziy g‘oyalarni shakllantirishga olib keladi. Masalan: *Sap-sariq quyosh samoga ko‘tarilganida, osmon **bag‘ri**dagi bir nechta bulut yer betida asta siljuvchi soyalarni va har yer-har yerda osmondan yergacha ingan yorqin nur dastalarini hosil qiladi. Nurlar dov-daraxt va buta shoxlariga **zar libosini kiydirsa**, bulut ko‘lankalari ularni birpasda kulrangga **bo‘yaydi**. Oftob ko‘tarilgani*

sayin butalar, kichik qirlar, og‘ochlarning uzun soyalari qisqarib, o‘ziga o‘xshamay qoladi, kichraya-kichraya, egalari poyida yotgan ***xufya askarlarga*** *aylanishadi. U askarlar yer betida har yer-har yerda, xuddi dala-tuz tinchini qo‘riqlagan kabi, har do‘ng, har tepa, har buta ostida turishadi, birining miltig‘i, birining kamoni, yana birining qalqoni ko‘lanka bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Tevarakda esa asta-sekin ulug‘bir siljish ro‘y beradi.* (“Genetik”, 15-bet).

Metafora voqelikning tasvirlangan obyektiga nisbatan individual mualliflik fikrining vakili sifatida ham, etnokultural ma’noga ega bo‘lgan majoziy so‘z sifatida ham ishlaydi.

Ingliz va o‘zbek nasrida metaforik birliklar inson ruhiyati, milliy tafakkur hamda kommunikativ maqsad bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Bu hol ayniqsa Isajon Sulton va Ernest Xeminguey asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan metafora insonning abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali anglash mexanizmini ifodalaydi. J. Lakoff va M. Johnson metaforani “inson tafakkurining konseptual modeli” sifatida izohlaydi. [2, B.256] Ularning fikricha, inson dunyoni metaforik tafakkur asosida idrok qiladi. Shu sababli metafora faqat til hodisasi emas, balki tafakkur hodisasi hamdir. Nasriy matnlarda metaforik birliklarning qo‘llanishi yozuvchining individual konseptual dunyoqarashini ochib beradi.

“The Old Man and the Sea” asarida metaforalar inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatni konseptual jihatdan ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi. Xeminguey metaforalarni ko‘pincha dengiz, baliq va tabiat hodisalari bilan bog‘liq obrazlar orqali yaratadi. Bunda “dengiz – hayot”, “baliq - orzu”, “kurash – yashash” kabi konseptual metaforalar yuzaga keladi. Masalan: *“A man can be destroyed but not defeated.”* Ushbu jumla oddiy fikr emas, balki inson matonatini ifodalovchi kuchli konseptual metaforadir. “Destroyed” jismoniy emirilishni anglatsa, “defeated” ruhiy mag‘lubiyatni bildiradi. Natijada metafora insonning ruhiy bardoshliligini konseptual darajada ifodalashga xizmat qiladi.

Isajon Sulton nasrida esa manba domen ko‘pincha tabiat, nur, sham, bulut kabi milliy-madaniy obrazlar orqali shakllanadi. Maqsad esa insonning ichki dunyosi va ruhiy kechinmalari bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, “umid chirog‘i” metaforasida “chiroq” konsepti umid va ma’naviy yorug‘likni ifodalaydi. Bu metafora sharqona tafakkurdagi nur konsepti bilan uzviy bog‘liqdir.

Ingliz va o‘zbek romanlarida metaforani hosil qiluvchi til hodisalari ko‘pincha semantik ko‘chish, assotsiativ tafakkur, ramziylik va kontekstual ma’no asosida yuzaga keladi. Bu hodisalar orqali yozuvchi murakkab ruhiy holatlar va falsafiy mazmunni obrazli shaklda ifodalaydi. Masalan, Ernest Xemingueyning “The Old Man and the Sea” romanida “sea” obrazi oddiy tabiat unsuri emas, balki inson hayoti, taqdiri va kurashining konseptual metaforasi sifatida qo‘llanadi. Bu yerda “hayot – dengiz” konseptual modeli yuzaga keladi. O‘zbek yozuvchisi Isajon Sulton asarlarida esa “ko‘ngliga zulmat cho‘kdi”, “qalbiga olov tushdi” kabi metaforalar inson ruhiyatini tabiat va moddiy predmetlar orqali idrok qilishga asoslanadi.

Metaforaning dualistik tabiati ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. G.N.Sklyarevskaya tadqiqotlarida til metaforasining leksik-semantik tizimdagi o‘rni til metafora amalga oshirilgandan so‘ng, boshqa bir qator lingvistik hodisalardan ajratilib, tavsiflangandan so‘ng, darhol uning ikki tomonlama mohiyati haqida savol tug‘ildi.[3, B.190]

G.N. Sklyarevskayaning ta’kidlashicha, til metaforasi o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi, tilning o‘ziga xos xususiyatiga ega va tilshunoslikda leksikologiya, semasiologiya, nominatsiya nazariyasi, psixolingvistika, lingvostilistika bilan bog‘liq kompleks muammo sifatida o‘rganiladi. U lug‘atning tayyor elementidir, bunday metaforani har safar yaratish shart emas – u tayyor holda olinadi va nutqda ishlatiladi, jonli nutq odatda metafora bilan to‘yingan.

Lisoniy va badiiy metaforalarning farqlanishi zamonaviy uslubda ham kuzatiladi. Masalan, M.N. Kojina metaforalar orasida quyidagilarni ajratib turadi:

1) umumiy til xarakteridagi metaforalar endi og‘zaki tasvir vositalariga tegishli emas (daryo qo‘li, tog‘ etagi); 2) yangilikni yo‘qotmagan “tazelik” ni saqlaydigan metaforalar (kulrang kumush); 3) metaforalar, aslida she’riy, individual xarakter bilan ajralib turadi. [4, B.464]

Til metaforalarining tasniflari N.D.Arutyunova, V.P.Moskvin, V.K.Xarchenko tomonidan ishlab chiqilgan va ularning ilmiy tadqiqotlarida taqdim etilgan. Badiiy metaforalarni tasniflash hali ham ish olib borilay-

otgan muammodir, chunki badiiy metaforalarni tasniflash ma’lum bir olim tomonidan metaforani o‘rganish jihatiga bog‘liq.[5, B.311]

Xulosa

Ernest Xeminguey asarlarida metaforalar ko‘proq falsafiy mushohada va yashirin konseptual ma’no hosil qilsa, Isajon Sulton nasrida hissiy-ekspressiv hamda milliy-madaniy tafakkur ustunlik qiladi. Har ikki adib metafora orqali inson ruhiyati va hayot haqiqatlarini chuqur badiiy-estetik shaklda ifodalashga erishadi. Shu sababli metaforalarning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish zamonaviy kognitiv tilshunoslik, lingvopoetika hamda pragmalingvistika rivoji uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алефиренко Н.Ф. Когнитивно-прагматическая субпарадигма науки о языке / Алефиренко Н.Ф. // Когнитивно-прагматические векторы современного языкознания: сб. науч. тр. – М.: Флинта: Наука, 2011. С. 16-28.
2. Метафоры, которыми мы живем / Metaphors We Live By Avtor: Lakoff Dj., Djonson M. – М.: Едиториал URSS, 2004. – 256 с.
3. Скляревская, Г. Н. Метафора в системе языка. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2000. – 190 с.
4. Кожина М.Н., Дускаева Л.Р., Салимовский В.А. Стилистика русского языка: учеб. – М.: Флинта: Наука, 2008. – 464 с.
5. Арутюнова Н.Д. Языковая метафора (синтаксис и лексика) // Лингвистика и поэтика: сб. – М.: Наука, 1979. – 311 с.